

**ASOSIY KO'RSATKICHLAR**

- Savdolarning umumiy hajmi 806,74 mlrd so'mni (62,40 mln dollar) tashkil etib, 2024-yilning mart oyiga nisbatan 736,48 mlrd so'mga yoki 10 barobarga o'sdi.
- Shu bilan birga, 256,38 mlrd so'm (19,82 mln dollar) yoki bitimlar hajmining 31,78 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Savdo hajmning qolgan qismi listingdan tashqari savdo maydonchasi (LTSM) bitimlarga to'g'ri keldi.
- Birja savdo maydonchalaridagi bitimlarning umumiy soni 37 786 tani tashkil etib, bu o'tgan yilning mart oyiga nisbatan 4 634 taga yoki 10,92% ga kam. Bunda, 30 926 ta bitim Birjaning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, 6 860 ta bitim esa listingdan tashqari savdo maydonchasida amalga oshirilgan.
- O'rtacha kunlik savdolar hajmi 44,82 mlrd so'mni (3,46 mln dollar), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 2 099 tani tashkil etdi.
- Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 0,4 foizga o'sib, 652,93 punktni tashkil etdi.

**BOZOR SHARHI****AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 49,04 mlrd so'mni (3,80 mln dollar) tashkil etdi. 2024-yilning mart oyiga nisbatan savdolar hajmi 11,20 mlrd so'mga yoki 18,59% ga kamaygan. Shu o'rinda, savdolarning asosiy hajmi (42,81 mlrd so'm) Nego Board platformasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha kunlik savdolar hajmi 2,72 mlrd so'mni (211 ming dollar), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 702 tani tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 924,25 mlrd so'mga yoki 0,38 foizga o'sib, 242,29 trln so'mni (18,76 mlrd dollar) tashkil etdi, erkin muomalada bo'lgan (free float) aksiyalarning bozor kapitallashuvi esa 4,07 trln so'mni tashkil etdi.

Oy oxirida Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 94 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.


**Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari**

		3/2021	3/2022	3/2023	3/2024	3/2025
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	68 823	24 164	90 923	60 233	49 036
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	3 128	1 272	4 330	3 346	2 724
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	16,4	4,2	5,5	1,6	1,6
Bitimlar soni	<i>dona</i>	4 206	5 801	16 473	38 680	30 633
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	191	305	784	2 149	1 702

## UCI INDEKSI

UCI indeksi oy davomida 0,4 foizga oshib, 652,93 punkt darajasida yopildi.

### 2025-yil mart oyidagi UCI indeksi grafigi



## OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 207,34 mlrd so'mni (16,03 mln dollar) tashkil etib, 2024-yilning mart oyiga nisbatan 206,24 mlrd so'mga yoki 187 barobarga oshdi.

O'rtacha kunlik savdo hajmi 11,52 mlrd so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni 16 tani tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 1,5 trln so'mni (116,43 mln dollar) tashkil etdi.

### Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		3/2021	3/2022	3/2023	3/2024	3/2025
Savdo hajmi	mln so'm	3	127	565	1 108	207 345
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	0,1	7	27	62	11 519
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	3	42	47	10	708
Bitimlar soni	dona	1	3	12	111	293
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	0	0	1	6	16

## LISTING

Oy oxirida birja kotirovkalash varag'ida 102 ta emitentning 153 ta instrumentlari mavjud edi. Mart oyi davomida birja kotirovkalash varag'iga 5 ta emitentning 5 ta instrumenti kiritildi: 1 ta oddiy aksiyalar va 4 ta obligatsiyalar emissiyasi.

## **LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI**

Oy yakuniga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 6 860 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning mart oyiga nisbatan 89,24% ga ko'pdir.

Umumiy hajm 550,36 mlrd so'mni (42,58 mln dollar) tashkil etib, o'tgan yilning mart oyiga nisbatan 61,73 barobarga oshgan.

98 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekti bo'ldi.